MODAL SO‘ZLARNING MA’NO XUSUSIYATLARI VA USLUBIY XOSLANISHI

Imamova Gulnora Talibovna
Jizzax davlat pedogogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada modal so‘zlarning ma’no xususiyatlari va uslubiy xoslanishi masalasini o‘rganishga qaratilgan. Modal so‘zlarning ma’no xususiyatlari va uslubiy xoslanishining nazariy masalalari, ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: leksema,sema,modal so‘zlar, nutq, lison, modal ma’no, ma’no attenkalari,uslubiy ma’no

Abstract: This article aims to study the issue of semantic features and stylistic characteristics of modal words in the Uzbek language. The theoretical issues and significance of the semantic features and methodological characteristics of modal words in the Uzbek language are discussed.
Key words: lexeme, sema, modal words, speech, language, modal meaning, meanings, stylistic meaning

Аннотация: Данная статья направлена на изучение вопроса семантических особенностей и стилистических характеристик модальных слов в узбекском языке. Обсуждаются теоретические вопросы и значение семантических особенностей и методических характеристик модальных слов в узбекском языке.
Ключевые слова: лексема, сема, модальные слова, речь, язык, модальное значение, значения, стилистическое значение.

So‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ifodalaydigan so‘zlar modal so‘zlar deyiladi.Modal so‘zlar gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini ko‘rsatuvchi modallik kategoriyasi har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida modal ma’nolar bir qancha yo‘llar bilan - ot, fe’l va ravishlarning ayrim shakllari, shuningdek, yuklama va modal so‘zlar bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida fikrning voqelikka munosabatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi alohida so‘zlar borki, ular modal so‘zlar nomi bilan yuritiladi. Modal so‘zlar (lotincha modus – «usul», «o‘lchov») so‘zlovchining gapda anglatilgan fikriga, voqea-hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Modal so‘zlar gapda anglatilgan fikrning so‘zlovchi uchun qanchalik aniqligini, bu xabarni so‘zlovchi qanday baholashini bildiradi. Modal so‘zlar, odatda, umuman gapga tegishli bo‘lib, gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun ular gap bo‘lagi ham bo‘lib kelmaydi. Masalan: Mehnat hamda turmush tajribasi, hunari bo‘lmagan odam ishdagi kishining o‘yini, tuyg‘usini anglamaydi gapiga albatta, shubhasiz, ehtimol kabi so‘zlar kiritilsa,ya’ni Ehtimol,mehnat hamda turmush tajribasi,shubhasiz, hunari bo‘lmagan odam ishdagi kishining o‘yini, tuyg‘usini anglamaydi bu gapning mazmuni o‘zgarib qolmaydi; bu so‘zlar fikr so‘zlovchi tomonidan qanday baholanishini bildiradi, xolos. Modal so‘zlar (lotincha modus – «usul», «o‘lchov») so‘zlovchining gapda anglatilgan fikriga, voqeahodisalarga munosabatini ifodalaydi. Unga [xullas], [demak], [chamasi], [tabiiy], [ehtimol], [shubhasiz], [shekilli] kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini ko‘rsatuvchi modallik kategoriyasi har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi. So‘zlovchining munosabatini ifodalaydigan so‘zlar modal so‘zlar sanaladi. So‘zlashuv jarayonida albatta, darhaqiqat, ehtimol singari so‘zlarni ko‘p eshitasiz, lekin bunday so‘zlar borliqdagi narsa-hodisalar, belgi xususiyatlarini nomlamaydi. Shu bilan birgalikda yordamchi so‘zlarga o‘xshab sof grammatik ma’no ham ifodalamaydi. Bunday so‘zlar

bildirilayotgan axborotga so‘zlovchining tasdiq, ishonch, gumon kabi munosabatlarini bildiradi. Modal so‘z ishtirok etgan gap tarkibidan modal so‘zini tushirib qoldirsak ham gapning umumiy mazmuniga putur yetmaydi. Lekin, ishonch, tasdiq ma’nosi bo‘rtib turmaydi. Masalan, Shalola kelgan, Shalola kelgandir, Shalola keldi, Shalola, albatta, keldi gaplarining birinchisida so‘zlovchining fikrga betaraf munosabati, ikkinchisida gumonsirash, uchinchisida aniqlik, to‘rtinchi gapda fikrning qat’iyligi namoyon bo‘lgan. Bundagi biror gapdan anglashilgan so‘zlovchining munosabati ikkinchi bir gapga ko‘chirilsa ham, gaplarning sintaktik holati o‘zgarmasdan qolaveradi. Ma'lum bo‘ladiki, [Pm] tarkibida tasdiq-inkor va modallik ma'nolari ham mavjud. Shuning uchun [Pm] da ya’ni predikativ ma’noda mujassamlashgan va turli vositalar bilan ifodalangan tasdiq-inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, aniqlik, qat'iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zarurat, majburiylik va shu kabi bir qancha ma'nolar gap tarkibida turlicha – kirish bo‘lak, kiritma bo‘lak kabi gapning boshqa bo‘laklari bilan tobehokimlik munosabatiga kirishmaydigan va shu boisdan so‘z birikmalarini ham tashkil eta olmaydigan modal va tasdiq-inkor so‘zlar vositasida kengaytiriladi. Masalan: 1. Nigora, ehtimol keladi. 2. Biz, shubhasiz, yutib chiqamiz. Gaplardagi ehtimol, shubhasiz so‘z-gaplari sodda gap tarkibiga kirar ekan, gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasa-da, mazmunan (Pm) ning tegishli ma'nolarini muayyanlashtiradi. Modal kengaytiruvchilar bu bilan lisoniy gap mazmunini nutqda to‘laroq ochishga yordam beradi. Modal so‘zlar va modallik masalalarida ko‘plab tilshunos olimlarimiz o‘z tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Jumladan, quyida Sh. Rahmatullayev tasnifi bilan tanishamiz. Modallar gap shaklga bir butun holda qo‘shilib, so‘zlovchining o‘zi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini, voqelikdan taajjublanishini, afsuslanishini ifodalaydi.

So‘zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini (modal ma’noni) ifodalovchi so‘zlar modal so‘zlar deyiladi. Bunday munosabat fikrning aniqligi yoki noaniqligi nuqtai nazaridan bo‘ladi. Shunga ko‘ra modal so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi:

1) fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘zlar;
2) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so‘zlar.

Birinchi guruhdagi modal so‘zlar fikrning rostligi, chinligini ifoda etadi: albatta, haqiqatan, tabiiy kabilar: Ayolsiz hovli, **tabiiy**, supurib-sidirilmagan bo‘ladi. (V.G‘ofurov.) Bu kelayotganlarning ichida, **darhaqiqat**, Safarov bilan Samandarov ham bor ekan. (A.Q.) Fotima dunyoga kelib o‘zi bilan shu qadar mehribon, xushmuomala gaplashadigan odamlar ham borligini, bular, **haqiqatan**, uni qo‘llashga kelishganini angladi. (P.T.) Bu, **shubhasiz**, haqiqat. (O.)

Ikkinchi guruhdagi modal so‘zlar fikrning gumonli, tusmolli, taxminiyligini ifodalaydi: balki, chamasi, ehtimol kabilar: Ahmadjon ko‘chaga chiqdi. Shu payt uning ko‘zlari hech qachon muloyim boqmagan, uning qo‘llari hech qachon birovni erkalab silamagan, uning yuzi hech qachon yumshoq tabassumni bilmaganday ko‘rinar, agar hozir uni xotini Xosiyatxon ko‘rsa, **balki** qo‘rqib ketar edi. (A.Q.) Bu, **ehtimol**, uning butun borlig‘ini zaharlaydi. (O.) Hali yaxshilab surshitirganimizcha yo‘q. **Ajabmas**, biron kishi topilib qolsa. (R.F.)

Modal so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi predmet, belgi, harakat va shu kabilarni atamaydi va gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaydi, Modal so‘zlar, aslida, mustaqil so‘zlardan kelib chiqqan, Masalan, aftidan, haqiqatan modal so‘zlari otdan kelib chiqqan; shubhasiz, tabiiy,yaxshi modal so‘zlari sifatdan o‘sib chiqqan va b. Demak, modal so‘zlar asl (o‘z) ma’nosini yo‘qotib, so‘zlovchining anglatalayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi vositaga aylangan so‘zlardir. Bunday so‘zlar ko‘p emas.

Modal so‘zlar gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmaydi. Ular gapda kirish bo‘lak vazifasida keladi: Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, **mazmuni**. (O.)

Demak, ishlash mumkin. **Ehtimol**, ketmon bilan yer ag‘darishga ham to‘g‘ri kelar. (A. Q.) Bu xatni bir vaqtlar, **haqiqatan,** Gulnor yozdirgan edi. (O.)

Hozirgi o‘zbek tilida modal so‘zlarning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan so‘zlar ham saqlangan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda modal so‘z bilan mustaqil so‘zni farqlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

1. Modal so‘z biror mustaqil yasama so‘zdan o‘sib chiqqan bo‘lishi mumkin. Lekin bunday modal so‘z yasovchi qismlarga ajralmaydi. Aynan shu ko‘rinishdagi mustaqil so‘z esa yasovchi qismlarga ajraladi: Yuvinib yengil tortgan jangchilar so‘zsizgina ovqatlanishar, serjantning so‘zlarini e’tibor bilan tinglashar edi. (H.G‘.) — Axir biz qotil emasmiz-ku. — So‘zsiz! Bu ma’noda aytayotganim yo‘q. (E.SH.) Birinchi misoldagi so‘zsizgina leksik birligida so‘z va -siz komponentlari o‘z ma’no va vazifasiga ega: so‘z — o‘zak, -siz — yasovchi affiks. Ikkinchi misoldagi so‘zsiz esa qismlarga ajralmaydi, bir butun holda so‘zlovchining anglatalayotgan fikrga munosabati (modal ma’noni) bildiradi.

2. Modal so‘z mustaqil so‘zning biror grammatik formasidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Lekin u morfemalarga ajralmaydi. Xuddi shu modal so‘z ko‘rinishidagi mustaqil so‘z esa morfemalarga ajraladi: Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor (Maqol). Yo‘lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do‘st bo‘lib, uning butun sifatlarini, fazilat va kamchiliklarini yaxshi sinagan edi. (O.) Mazmuni, tuman rahbarlari o‘zlari chiqargan qarorni boshlariga bolish qilishib, bemalol uxlayotganga o‘xshaydilar. («Mushtum».) Salimboyvachcha hatto labini qimirlatmasdan ichida o‘qidi. Xatning mazmuni shunday edi... (O.)

3. Nihoyat, modal so‘zlar gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmaydi, kirish bo‘lak vazifasida keladi. Xuddi shu ko‘rinishdagi mustaqil so‘z esa gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi: Ta**biiy,** Xushro‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-ona uning ra’yini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo‘rqadirlar. (A.Q.) Kun bo‘yi qo‘y boqqan cho‘ponlar oqshomlari chayla oldida o‘t yoqishlari tabiiy. (Sh R.)

Ayrim modal so‘zlar dialoglarda yakka holda qo‘llanganda mustaqil gap sifatida amal qiladi. Bunday hollarda ham modal so‘z so‘zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi:

— Axir, biz qotil emasmiz-ku.

— **So‘zsiz.** So‘zsiz. (Y. Sh.) Keltirilgan misolda So‘zsiz modal so‘zi so‘z gap shaklida sintaktik holatni ifodalagan. Modal so‘zlar sintaksisda kirish so‘z vazifasida keladi. Modal so‘lar she’riy nutqlarda ham ifodalanib u ham misralar tarkibida modal ma’no hosil qiladi. Masalan.

Ehtimolki, bu qiz bir
Savdogorning qizidir.
Ehtimolki, bir suqsur,
Bir parining o‘zidir. (H.Olimjon)

Ushbu misralarda qo‘llangan **ehtimol** modal so‘zi so‘zlovchining fikriga gumon-taxmin kabi modal ma’nolarni ifodalab kelmoqda.

-chindan-chindan: mundan so‘ng Toshkent bormayman,-degan javobni berar edi.(A.Qodiriy)Ushbu gapda chindan-chindan birligi modal so‘z bo‘lib, fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘z sanaladi.Gap tarkibida fikrning rostligi ta’kidlanayapti.Yasama modal so‘z bo‘lib chin sifat turkumining takroridan yasalgan.Gapda kirish so‘z vazifasida kelgan.

Modal so‘zlar so‘zlovchining fikriga turli modal ma’nolarni ifodalab fikrning aniqliligini, ishonch, gumon, taxmin,fikrning tartibi kabi modal ma’nolarni anglatib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov N. Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi – Toshkent, 1995. 20.
2. Mahmudov N. Nurmonov A. Sobirov A. Nabiyev D. Mirzaahmedov D. Ona tili umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun Ona tili darsligi to‘ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashr. –Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
3. Oxunjonova.A. Davlat tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent. Til va adabiyot ta’limi, 2002.
4. Quliyeva Sh. Ta’lim jarayonida elektron darslikdan foydalanish. – Toshkent, 2008.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006.
6. Saydullayeva A. Darslarni samarali tashkil etishda foydalanadigan o‘yinlar. –Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2016.
7. Sapayev.Q. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent, 2007.
8. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2007